

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

GʻANIYEV FAZLIDDIN ZOYIROVICH

**YEVROPA ADABIYOTIDA MASAL JANRINING POETIK
TARAQQIYOT XUSUSIYATLARI
(JAN DE LAFONTEN, GELLERT VA LESSING IJODI asosida)**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

G'aniyev Fazliddin Zoyirovich

Yevropa adabiyotida masal janrining poetik taraqqiyot xususiyatlari (Jan de Lafonten, Gellert va Lessing ijodi asosida)3

Ганиев Фазлиддин Зойирович

Особенности поэтического развития жанра басни в Европейской литературе (на примере творчества Жана де Лафонтена, Геллерта и Лессинга).....23

Ganiev Fazliddin Zoyirovich

Features of the Poetic Development of the Fable Genre in European Literature (on the Example of the Works of Jean de La Fontaine, Gellert and Lessing)45

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....49

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

GʻANIYEV FAZLIDDIN ZOYIROVICH

**YEVROPA ADABIYOTIDA MASAL JANRINING POETIK
TARAQQIYOT XUSUSIYATLARI
(JAN DE LAFONTEN, GELLERT VA LESSING IJODI ASOSIDA)**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.4.PhD/Fil2892 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **O'rayeva Darmon Saidaxmedovna**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Jo'rayeva Malohat Muhammadovna**
filologiya fanlari doktori, professor

Qarshibayeva Uljan Davirovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil « 8 » may soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (871 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil « 25 » aprel kuni tarqatildi.

(2026-yil « 25 » aprel dagi 26-06 - raqamli reyestr bayonnomasi.)



D.I.Xodjayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, dotsent

O.O.Bobokalonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori, dotsent

O.M.Fayzulloyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotida insonlarning axloqiy va ijtimoiy muammolarini satirik uslubda, majoziy obraz hamda fantastik belgilar orqali kichik she'riy yoki nasriy shaklda bayon etishga mo'ljallangan masallar qadimdan hozirgacha yaratilib kelinmoqda. Ularning mazmunan va shaklan naql, afsona, rivoyat, masal, latifalarda yaqin turishi, ta'limiy xulosasi maqol, hikmatli so'z va iboralar orqali berilishi folklor ta'sirida yaratilganidan dalolat beradi. Masallarga xos ana shu poetik taraqqiyot xususiyatlarni, tadrijiy takomil asoslari va belgilarni ochish insoniyat badiiy tafakkurining evolyutsiyasi, epik janrlar takomilining genetik aloqadorligi, folklorning yozma adabiyot taraqqiyotiga ta'sirini asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida masal janri genezisi, shakllanish asoslari, poetik janrlar tizimida tutgan o'rni, folklorning naql janri bilan bog'liqlikdagi badiiy taraqqiyoti, poetik-kompozitsion jihatlarini ochishga alohida e'tibor bilan qarab kelingan. Shu bois yunon, fransuz, nemis, rus masalchiligi tarixi, unga hissa qo'shgan mashhur masalnavislar mahorati, masal janri tabiati va badiiyati, masal janrining paydo bo'lish asoslari, poetik taraqqiyot bosqichlari, an'anaviy syujet voqeliklari mazmun-mohiyati tadqiqi bo'yicha chiqarilgan xulosalar folklor va yozma adabiyotning o'zaro bog'liqlikda rivojlanib kelganini asoslash, masal poetikasiga doir badiiy qonuniyatlarni aniqlash, xususan, fransuz va nemis adabiyotida masal janri genezisi va takomilida Lafonten, Lessing va Gellert masallarining o'rni, ularning jahon masalchiligiga qo'shgan ulushini, o'ziga xos poetik mahorat belgilarini ochish va ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

Yangi O'zbekistonda ilmiy va ijodiy izlanishlar har tomonlama qo'llab-quvvatlanib, barcha zarur shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Chunki "Taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlikni taminlashda buyuk ajdodlarimiz qoldirgan, butun insoniyatning manaviy boyligi bo'lgan bebaho adabiy merosni o'rganish ahamiyati beqiyosdir".¹ Bu har bir fan sohasi qatori qiyosiy adabiyotshunoslikda ham chuqur izlanishlar olib borish zarurligini ko'rsatmoqda. Yurtimizda dunyo adabiyotining bebaho mulki bo'lgan ming-minglab asarlar tarjima qilinib, kitobxonlar qalbidan joy olgani, badiiy tarjima va tarjimashunoslik bo'yicha o'ziga xos ijodiy maktab shakllanganligini alohida ta'kidlash lozim. Jumladan, Yevropa adiblari ijodida, xususan, fransuz va nemis adabiyotida masal janri genezisi va takomilida buyuk masalchilar badiiy mahorati, yaratgan masallarining mavzular olami, an'anaviy obraz va motivlar tarkibini o'rganish, masal janri poetik taraqqiyotining mushtarak xususiyatlarini yoritish, hamda shu orqali jahon adabiyoti, dunyo xalqlari adabiy aloqalari o'z tarixiga ega ekanligini dalillash imkoni kengayadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-

¹ Мирзиёев Ш.М. "Илмий-маърифий ҳамкорликни кучайтириш-давр талаби". Ислом ҳамкорлик ташкилотининг фан ва технологиялар бўйича биринчи саммитида сўзланган нутқ. Қозоғистон Остона. 2017-йил 10-сентябрь.

2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis palatalariga 2020-yilning 24-yanvaridagi Murojaatnomasi hamda mavzuga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yullari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida masal janri genezisi, taraqqiyoti, poetikasi, uning rivojlanishiga hissa qo'shgan mashhur masalnavislar badiiy-uslubiy mahorati bo'yicha ayrim tadqiqot ishlari bajarilgan. Masalan, fransuz adabiyotshunosligida² Karla Kanva va Kristian Vandendorp, Nikol Kottart, Patrik Dandre, Luiza Dyuss, Iva Jiro, Morten Noygard, Jana-Noel Paskal, Jan Pepen, Lui Renu, Mishel Serr, G.U.Txite, Paskal Tonassi, nemis adabiyotshunosligida³ Erix Ebeling, Kazui Akimoto, Kristin Eyxorn, R.Ditmar,

² Noel T.L. The rise and fall of a genre: theories of the fable in the eighteenth century. – Illinois universiteti – Urbana-Champaign. // PhD diss., 1971. – B. 8.; Karl Canvat et Christian Vandendorpe, La fable : Vade-mecum du professeur de français, Bruxelles-Paris, Didier Hatier, coll. « Séquences », 1993. – 104 p ; Nicole Cottart, «Le Livre de Kalila et Dimna», dans Jean Glénisson, Le livre au Moyen Âge, Louvain-la-Neuve, Brepols, 1988; Patrick Dandrey, La fabrique des fables, Paris, Klincksieck, 2010; Louisa Düss, La méthode des fables en psychanalyse infantile, L'Arche, 1950 ; Yves Giraud, L'emblème à la Renaissance. – Paris, S.E.D.E.S-C.D.U., 1982; Morten Nojgaard, La fable antique, vol. 1, Copenhague, Nyt Nordisk Forlag, 1964; Jean-Noël Pascal, «Brèves remarques sur quelques fabulistes des Lumières», dans Geneviève Artigas-Menant et Alain Couprie, L'idée et ses fables, Paris, Champion, 2008. – 339 p.; Jean Pépin, Mythe et allégorie: les origines grecques et les contestations judéo-chrétiennes, vol. 1. – Paris, Etudes augustiniennes, 1976; Louis Renou, «Littérature sanscrite», dans Raymond Queneau, Histoire des littératures 1. – Paris, Gallimard, 1955. – 1768 p; Michel Serres, Hermès IV. La distribution, Paris, Minuit, 1977;(en) G.U. Thite, «Indian Fable», dans Robert S. Falkowitz et al., La Fable, Genève, Fondation Hardt, 1984. – 322 p.; Pascal Tonazzi, Le vocabulaire des Fables de La Fontaine. – Paris: Berg International, 2017. – 216 p.; Pascal Tonazzi, Morales, maximes et pensées des Fables de La Fontaine, La Rochelle, Coll. Electrons Libres, Evidence Editions, 2018. – 136 p.

³ Erich Ebeling: Die Babylonische Fabel und ihre Bedeutung für die Literaturgeschichte, 1927; Kazuya Akimoto: Ante-Aesopica: Fable Traditions of Ancient Near East. Nashville, 2010; Kristin Eichhorn: Die Kunst des moralischen Dichtens. Positionen der aufklärerischen Fabelpoetik im 18. Jahrhundert. – Würzburg, 2013. – S.45 ff. Eichhorn 2013. – S.103 ff.; R. Dithmar: Die Fabel. Paderborn, 1971. – S. 103–107; G.E. Lessing: Definition einer Fabel, Gebrauch von Tieren in einer Fabel (Z. 5–15), Leipzig 1774; Hans-Joachim Fischer: Fabeltiere – im Spiegel der Tiere den Menschen erblicken. In: Sache – Wort – Zahl, 86 (2007). – S.4–7.; Siegbert A. Warwitz: Die Verkehrsfabel oder Wie man Verkehrsprobleme thematisieren kann. In: Ders.: Verkehrserziehung vom Kinde aus. Wahrnehmen – Spielen – Denken – Handeln. 6. Auflage. Schneider-Verlag, Baltmannsweiler, 2009. – S. 172–173, 179–181, 273–279; Bernd A. Weil: Fabeln: Verstehen und Gestalten. Frankfurt/M.: Fischer Verlag, 1982.; Siegbert A. Warwitz: Wir deuten und dichten Verkehrsfabeln. In: Sache – Wort – Zahl, 25 (1999). – S. 53–56; Autorin Mädchen (13 Jahre). Zitiert aus: Siegbert A. Warwitz: Wir deuten und dichten Verkehrsfabeln. In: Sache – Wort – Zahl, 25 (1999). – S. 56.

G.E.Lessing, Gansa-Yoaxima Fisher, A.Zigbert, A.Bernd tadqiqotlari alohida e'tiborni tortadi.

Ko'riyaptiki, Yevropa adiblari ijodida masal janri poetik taraqqiyotining mushtarak xususiyatlari qiyosiy aspektida hali maxsus o'rganilgan emas.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi "Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni o'rganishni yanada rivojlantirishning afzalliklari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Yevropa adabiyotida masal janrining poetik taraqqiyot xususiyatlarining o'ziga xosligini Jan de Lafonten, Gellert va Lessing ijodi misolida aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Yevropa adabiyotida masal janrining paydo bo'lish asoslari, poetik taraqqiyot bosqichlarini, unga yevropalik olim va adiblarining munosabatini aniqlash;

Yevropada Ezop masal janrining asoschisi ekani, undan so'ng masal janrining tarqalish geografiyasi va poetik tabiatida hosil bo'lgan umumiy belgilarni oydinlashtirish;

fransuz adabiyotida masal janri genezisi va takomilida Lafontenning o'rni, uning buyuk masalchi sifatidagi badiiy mahorati, yaratgan masallarining mavzular olami, an'anaviy obraz va motivlar tarkibini dalillash;

nemis adabiyotida masal janri poetik takomilida Lessing va Gellert masallarining o'rni, ularning jahon masalchiligiga qo'shgan ulushini, o'ziga xos poetik mahorat belgilarini ochish;

Yevropa adiblarining masal yaratishda syujet, qahramon va kompozitsiya masallaridagi mushtarak poetik xususiyatlarini asoslash.

Tadqiqotning obyekti. Dissertatsiyani yozishda fransuz adibi Jan de Lafonten, nemis ijodkorlari Gellert va Lessing masallari to'plami asosiy manba sifatida tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Jan de Lafonten, Gellert va Lessing kabi Yevropa adabiyoti vakillari ijodi misolida masal janrining poetik taraqqiyot xususiyatlarining mushtarak va o'ziga xosligi tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy, tarixiy-tipologik, kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

Yevropa adabiyotida majoziy ifoda masal janrining asosiy belgisi ekanligi, ularda allegorik obraz, allegorizatsiya hodisasi, ramziy va timsoliy tasvirlarning poetik xususiyatlari, sarlavhaning ahamiyati, o'lim va hayot, ahillik, mehmondo'stlik odobi, uyni tortib olish singari ijtimoiy-madaniy turmush bilan bog'liq motivlar ustivorligida ifodalanishi dalillangan;

Yevropa adabiyoti buyuk masalchilar ijodidagi mushtarak jihatlar yaratilgan masallarda *oina, model, mediatsiya, saqlash, o'rgatish* kabi vazifalar faolligi; mavzular olamining kengligi; klassik va zamonaviy modellar; syujet, qahramon, kompozitsiya, uslubning o'zaro bog'liqligi; obraz va motivlar tarkibidagi an'anaviylik va novatorlik belgilar asosida namoyon bo'lishi aniqlangan;

buyuk farnsuz masalchisi Lafonten masallari oddiy misol yordamida o'quvchiga qiyin bo'lgan kundalik vaziyatni tushunish; o'quvchi tasavvurini xayolot dunyosiga o'tkazib, uni kengroq fikrlashga undash; axloq (moral) inson xarakterining salbiy illatlarini qoralovchi va ta'limiy xulosalash; personajlar tili sodda, ixcham, jonli so'zlashuv nutqiga yaqin bo'lishi kabi individual yondashuv tamoyillari asosida voqelanishi isbotlangan;

Lessing masallarida nemis jamiyati va XVIII asr nemis adabiyoti illatlarining keskin masxara qilinishi, har bir monarx yovuz ekanligi personajlar tizimini kuchli tavsiflash, tasviriylik kuchliligida ifodalansa, Gellertning yuqori nutq uslubining o'ziga xosligi kundalik hayot falsafasi, falsafiy-diniy masalalar bayonida namoyon bo'lishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Yevropa adabiyotida masal janrining genezisi, shakllanish asoslari, poetik taraqqiyot bosqichlari, takomil belgilari, tarqalish geografiyasi, dunyoviy va diniy, qadimiy, an'anaviy, zamonaviy tiplari, lirik, ijtimoiy, siyosiy, tarixiy, falsafiy, metafizik, distopiya tabiatiga oid bashoratli turlari aniqlangan;

fransuz Jan de Lafonten hamda nemis adiblari Gellert va Lessing ijodidagi masallar asosida ushbu janr genezisi, poetik taraqqiyot bosqichlari va xususiyatlari aniqlangan;

folklordagi naql janrining yozma adabiyotdagi masal janri paydo bo'lishi va shakllanishiga ta'siri asoslangan;

fransuz va nemis adabiyotida masallarning badiiy-kompozitsion hamda lingvopoetik xususiyatlari, yoshlar tarbiyasidagi didaktik ahamiyati dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi dissertatsiyada qo'llanilgan ilmiy-metodologik yondashuv va usullar, nazariy ma'lumotlarning ilmiy va badiiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar qiyosiy-tipologik, tarixiy-qiyosiy, kontekstual tahlil usullari vositasida asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda chiqarilgan nazariy xulosalar masal janri poetikasi, genezisi, badiiy strukturasi, obraz va motivlar tarkibi haqidagi tasavvurlarni kengaytirishi, fransuz hamda nemis masallarining umumiy va xususiy jihatlarini aniqlash, ularning mohiyati va o'ziga xosligini o'rganishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan oliy, o'rta maxsus ta'lim tizimida, umumta'lim maktablarida yoshlarga masal va naql janrlari, ularning qadimiy va an'anaviy janr ekani, tarbiyaviy mazmun-mohiyatini qiyosiy o'rgatayotganda, ularga oid adabiy terminlar lug'atini yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yevropa adabiyotida masal janrining poetik taraqqiyot xususiyatlarini (Jan de Lafonten, Gellert va Lessing ijodi misolida) aniqlash jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

Yevropa adabiyotida majoziy ifoda masal janrining asosiy belgisi ekani, ularda allegorik obraz, allegorizatsiya hodisasi, ramziy va timsoliy tasvirlarning poetik xususiyatlari, sarlavhaning ahamiyati, o'lim va hayot, ahillik,

mehmondo‘stlik odobi, uyni tortib olish singari ijtimoiy-madaniy turmush bilan bog‘liq motivlar ustivorligida ifodalanishiga oid nazariy xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2017-2020-yillarga bajarilgan OT-F1-030 “O‘zbek adabiyoti tarixi” ko‘p jildlik monografiyasini (7 jild) chop etish” mavzuidagi fundamental loyihasida foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 4-dekabrdagi №04/1-2581-son ma‘lumotnomasi). Natijada masal o‘zbek adabiyotining an‘anaviy janri sifatida taraqqiy etganligi asoslangan;

Yevropa adabiyoti buyuk masalchilar ijodidagi mushtarak jihatlar yaratilgan masallar *oina, model, mediatsiya, saqlash, o‘rgatish* kabi vazifalar faolligi; mavzular olamining kengligi; klassik va zamonaviy modellar; syujet, qahramon, kompozitsiya, uslubning o‘zaro bog‘liqligi; obraz va motivlar tarkibidagi an‘anaviylik va novatorlik belgilar asosida namoyon bo‘lishiga oid nazariy xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi doirasida 2016-2018-yillarda amalga oshirilgan “561624-YeRR-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: “O‘zbekistonda oliy ta‘lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli xalqaro loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 16-iyundagi №1678/30.02.01-son ma‘lumotnomasi). Natijada respublikamizda oliy ta‘lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirishda Yevropa adabiyoti namunalaridan foydalanishning o‘z o‘rni va ilmiy-amaliy ahamiyati borligi dalillangan;

buyuk farnsuz masalchisi Lafonten masallari oddiy misol yordamida o‘quvchiga qiyin bo‘lgan kundalik vaziyatni tushunish; o‘quvchi tasavvurini xayolot dunyosiga o‘tkazib, uni kengroq fikrlashga undash; axloq (moral) inson xarakterining salbiy illatlarini qoralovchi va ta‘limiy xulosalash; personajlar tili sodda, ixcham, jonli so‘zlashuv nutqiga yaqin bo‘lishi kabi individual yondashuv tamoyillari asosida voqelanishiga oid xulosa va natijalardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasida “Assalom, Buxoro”, “Najot bilimda”, “Asrlarning asraganlari” kabi turkum ko‘rsatuvlar, shuningdek, “Muloqot va munozara”, “Qadriyatlar qadim beshigi” radioeshittirishlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2023-yil 5-dekabrdagi №02-09-390-son ma‘lumotnomasi). Natijada bu ko‘rsatuvlarni tayyorlashda xalq og‘zaki ijodidagi naql va yozma adabiyotdagi masal janrlari, ularning fransuz hamda nemis tillaridagi namunalari badiiyati haqida qiziqarli tahliliy materiallar teletomoshabinlar e‘tiboriga havola qilingan. Buning natijasida esa ushbu teleko‘rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukamallashtirilib, ilmiy dalillarga boy bo‘lishiga erishilgan va ko‘rsatuvning ilmiy-ommaboplik xususiyati oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 4 ta respublika, 4 ta xorijiy ilmiy anjumanlarida muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 15 ta ilmiy ish, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik

dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 4 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 147 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati, o'rganilganlik darajasi asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti, predmeti, usullari, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ilmiy, amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Yevropa adabiyotida masal janrining shakllanishi va takomili”** deb nomlangan. Uch fasldan iborat bu bobning ilk fasli *“Jahon adabiyotida masallarning o'rni va ularga munosabat”* deb atalgan.

Ezopning masallari dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilingan hamda ko'pchiligi qayta ko'rib chiqilgan. Ezop nomi bilan 426 ta qisqa masallar to'plami jamlandi va ular nasrda saqlanib qolganligi aniqlandi. Ezop masallari syujetlari ko'plab fabulistlar tomonidan ishlangan. Fedrus va Babriydan Jan de Lafontengacha va rus yozuvchisi Ivan Andreevich Krilovgacha uning masallaridan foydalanib kelishgan.⁴ Ezopning nomi bilan ataladigan hamda bugungi kungacha ishlatilib kelinayotgan fikrlarni ifodalashning allegorik uslubi – “ezopiya tili” uning nomi bilan bog'lanadi. Ezop nomi bilan bog'liq eng qadimgi masallar asosida Ezopiya masal modelini yaratgan mumtoz mualliflar qatorida rim shoiri Horas, yunon biografi Plutarx va yunon satirigi Lusian nomlarini keltirish mumkin.

Masallar alegoriyaning barcha turlari kabi o'rta asrlarda ham gullab-yashnagan. Ajoyib masallar to'plami XII asr oxirida Mari de Frans tomonidan to'plangan. Antik janrlar qayta ishlana boshlangan XVII-XVIII asrlar adabiyotida masalga ham e'tibor kuchaygan. Bunda masal an'anaviy tarzda oddiy va ixcham hajmini yo'qotmagan bo'lsa-da, XVII asrda Fransiyada Jan de Lafonten ijodida o'zining eng yuqori cho'qqisiga yetdi.

Adabiyotda mustaqil janr sifatida o'z o'rni va ahamiyatiga ega bo'lishi uchun masalnavislik silsilasi bevosita ta'lim-tarbiya, pedagogika bilan bog'liq tarzda rivojlanib borgan⁵. Asosiy qahramoni hayvonlar bo'lib, ularning tilidan majoziy ko'rinishda jamiyatning muammolari va shaxs tabiatidagi qusurlarni ochib beruvchi masallarning bolalar yoki yoshi kattalar uchun yozilishida shakli va mazmuniga ko'ra juda sezilarli farq yo'q. Faqatgina yosh tajribasi va hayotga nisbatan qarashlariga ko'ra bir masalni turli yoshdagi o'quvchilar turlicha qabul qilishi, talqin qilishi va xulosalari ham farqli bo'lishi tabiiy. Aynan mana shu xususiyati masallarning adabiy va pedagogik qiymatini oshiradi.

⁴ Трунин К. Княжнин, Фонвизин, Крылов. Критика и анализ литературного наследия. – М., 2018.

⁵ Noel T. L. The rise and fall of a genre: theories of the fable in the eighteenth century. – Illinois universiteti – Urbana-Champaign. // PhD, 1971. – B. 8.

XVII asrning soʻngi yillarida Angliyada ertak-masal yoki “Aesop-craze”) paydo boʻldi. Biroq, ingliz masalnavisligi ham Fransiya yoki Ispaniyada, Gratsiyaga boʻlgani kabi faqat amaldagi hukumatga qarshi protest bildirish quroli sifatida ishlatilmagan. XVI asrning eng yorqin fabulistlari va axloqshunoslari oʻqitish va maʼrifatga erishish vositasi sifatida ushbu janr bilan shugʻullanishgan.

XVIII asrda Germaniyada shoir Lessing (1729–1781) masal janriga murojaat qiladi. Ezop singari u ham nasrda masallar yozadi va shu jihatiga koʻra frantsuz shoiri Lafontendan farq qiladi. Chunki Lafonten masallari nafis, qofiyalar bilan juda bezatilgan, vaznga solingan sheʼriy namunalari edi. Lessing ular taʼrifida “ov kamoni shu qadar chiroyli oʻyilganki, u asl maqsadini yoʻqotib, yashash xonasining bezagiga aylangan” deya taʼrif keltiradi.⁶

Masal janrining ajoyib namunalari rus adabiyotida I.Krilov, D.Bedniy, S.Marshak, S.Mixalkov yaratdilar. L.N.Tolstoy, V.Doroshevich, M.Lomonosov, A.P.Sumarokov, K.Chukovskiy masallari ham mashhur. Rus adabiyotida N.Bologova, M.Nadzemi, D.Davidovlar masalni oʻrganib, nafaqat ushbu janrning xususiyatlarini, balki uning vaqt oʻtishi bilan qanday rivojlanishini ham qayd etadilar. Masalga qiziqish susaymaydi va har bir muallif janr anʼanalaridan foydalangan holda yangilik yaratuvchi sifatida harakat qilib, yangi masallarni toʻqiydi.

Umuman aytganda, XX asrda masal janri Evropa adabiyotida yanada kengroq tarqaldi. Uning roman-masal, hikoya-masal, drama-masal kabi yangi oraliq janr tiplari paydo boʻldi. Ularda fantastikaning oʻrni kuchaydi. Shuningdek, masal, masal ishi kabi yangi tushunchalar paydo boʻldi.

Xullas, xalq ogʻzaki ijodidagi naqllar va antik masalchilik anʼanalarini davom ettirib, uni ijodiy rivojlantirib, oʻz masallariga milliy xarakter, yangi mazmun va gʻoyaviy yoʻnalish bagʻishlagan, davr pafosini singdirib yuborgan Sharq va Gʻarb masalnavislari faoliyati misolida masal badiiy adabiyotning “xalqaro janri”ga aylangani oʻz isbotini namoyon etadi.

Birinchi bobning ikkinchi fasli “*Masal janri tabiati va turlari*” mavzusiga bagʻishlangan. Masal – eng qadimiy adabiy janrlardan biri. Masal taʼlimiy xarakterdagi, kichik sheʼriy, baʼzan nasriy shakldagi asar boʻlib, satirik va allegorik maʼnoga ega qisqa hikoyadir. Masalda insonga xos xususiyatlar, jamiyatga xos ijtimoiy hodisalar, munosabatlar koʻpincha hayvonlar yoki qushlar orasidagi munosabatlar, tabiat hodisalari vositasida aks ettiriladi. Komiklikning va kinoyaning, ijtimoiy tanqid motivining ustunligi masalga hajviy ruh bagʻishlaydi. Masalning hikoya qismi hayvonlar haqidagi ertaklar, afsona va rivoyatlar, latifalar, loflarga yaqin boʻlib, xotimasi taʼlimiy xulosa, pand-oʻgit tarzida xalq maqoli yoxud biror-bir hikmatli soʻz, iboralar orqali beriladi.⁷ Masallarda gʻoya va maqsad aniq boʻladi. Obrazlar yorqin sifatlar bilan tasvirlanadi. Muallif va personajlar nutqi oʻtkir qochirimlarga boy, masxaralash kuchiga ega boʻladi. Masalning hikoya qismi va xulosa qismi oʻzaro bogʻliq va mazmunan bir-birini toʻldiruvchi xususiyatlarga ega boʻladi. Masal oʻziga xos bir qator belgilarga ega.

⁶ Lessing. (“Abhandlungen”) über die Fabel. – Afsonadagi nutq, 1759.

⁷ Karl Canvat et Christian Vandendorpe, La fable : Vade-mecum du professeur de français, Bruxelles-Paris, Didier Hatier, coll. «Séquences», 1993. – 104 p.

Ularning asosiylari sifatida quyidagilarni ta'kidlab ko'rsatish mumkin: 1. Masal har doim misol, dalil keltirish uchun, ibrat namunasi sifatida aytiladi. Masal – bu moral. 2. Masallardagi voqea joyi, personajlar xarakteriga qarab uning qaysi xalqqa tegishli ekanini anglab olish mumkin. 3. Masal har doim ham axloqiy xulosa bilan tugamaydi. 4. Masal janrida turli xil diniy va falsafiy ta'limotlardan foydalaniladi. 5. Masallarda insonning yomon ishlari, jamoat hayotining kamchiliklari majoziy obrazlar orqali tasvirlab beriladi. 6. Masallar afsona va ertaklar bilan yaqin hisoblanadi.

Rus adabiyoti vakili V.A.Jukovskiy “Krilovning ertagi va masallari to'g'risida” sarlavhali maqolasida masalning to'rtta asosiy xususiyatlarini ko'rsatib bergan. Uningcha, masalning birinchi xususiyati – bu xarakterdagi xususiyatlar, bir hayvonning boshqasidan qanday farq qilishi. Bunda, albatta, hayvonlar odamni ifodalaydi, lekin odam xarakter-xususiyatlari o'zgaruvchanlikka ega. Har bir hayvon esa o'ziga xos doimiy xarakterga ega. Shuning uchun ulardan ko'pincha aniq qiyofani yaratishda foydalaniladi. Masalan, bo'rida ko'pchilik qonxo'r yirtqich timsolini ko'rsa, tulki timsolida xushomadgo'y yoki yolg'onchi, ayyor qiyofasi gavdalantiriladi. Masalning ikkinchi xususiyati – xayoliy narsa-hodisani mavjud bo'lgan narsa-hodisa bilan taqqoslashdan zavqlanish hissini baxsh etishidir. Masalning uchinchi xususiyati esa axloqiy saboq, xarakterning salbiy sifatini qoralashdan iborat axloqiy xulosaga olib kelishidir. Uning to'rtinchi xususiyati shundaki, masaldagi odamlar o'rniga narsalar va hayvonlar harakat qilishadi.

Masal xalq donoligi, aforizmlarga o'ralgan, qisqa ibratli hikoyalardir. Ularni yaratilish davriga qarab ikkiga ajratish mumkin: 1. *Qadimiy (an'anaviy) masallar.* 2. *Zamonaviy masallar.*

Jahon xalqlari orasida “masal” so'zi “namuna” ma'nosini anglatadi. Masalan, slovencha *príča* “masal, hikoya” deganidir. Ibroniycha masal – “namuna” degani. Bu so'zlarning barchasi zamonaviy “ibrat” so'zi paydo bo'lishining manbai bo'lib, allegorik shaklda tarbiyalovchi hikoyani anglatadi.

Y.A. Strukov ta'kidlab o'tganidek, XIX asrda kanonik janrdagi masal ancha badiiy ong turiga, badiiy voqelikni anglash uslubiga aylandi. S.S.Averintsevning fikriga ko'ra, masal o'zining asosiy xususiyatlariga ko'ra afsonaga yaqin bo'lgan didaktik-allegorik janrdir.⁸

Masallar janr sifatida tadqiqotchilar V.I.Tyupa va E.K.Romodanovskaya asarlarida ham ko'rib chiqilgan. E.K.Romodanovskaya mavhumlik va ramziylik masalning asosiy xususiyatlari ekanini ta'kidlaydi. V.I.Tyupa masalning prototipik xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatadi: 1. Masal, asosan, og'zaki mavjud. 2. Masal – rivojlanmagan hudud. 3. Qat'iy va sodda kompozitsiyaga ega. 4. Lakonizm va ifoda aniqligi mavjud. 5. Tinglovchining taxminiy bilimiga tayaniladi.

Masalning tuzilishi hali ham olimlar o'rtasida tortishuvlarga sabab bo'lmoqda. Masalan, Lafontening fikriga ko'ra, masalni tashkil etuvchi asosiy qismlar ikkitadir, masalning o'zi va xulosasi. Ko'pchilik tadqiqotchilar, Lafonten

⁸ Averintsev, 1987. – B.305.

an'analariga rioya qilgan holda, masalning tuzilishini ikki qismli, "proposition – conclusion" ("shart – xulosa") deb hisoblagan. Dastlab bunday fikrni M.V.Lomonosov bildirgan. Biroq M.A.Novojilov masal tarkibidagi uchinchi element ham borligini qayd qilib, uni "semantik tugun" deb nomlaydi.

Umuman aytganda, masal kichik ibratli hikoya, axloqiy yoki diniy ta'limot (donolik)ni o'z ichiga olgan didaktik-allegorik adabiy janrdir. Shunga ko'ra, masallarni yana ikkiga bo'lish mumkin: 1. *Oddiy, kundalik holatda, universal ma'no yashiringan – hamma odamlar uchun saboq bo'luvchi masallar*. Ular ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatma berish uchun ishlatiladi, shuning uchun u majozlarni o'z ichiga oladi. 2. *Diniy mazmundagi masallar*. Ular diniy ta'lim sohasida keng tarqalgan. Masalan, "Sulaymonning maqollari", o'nta bokira qiz haqidagi masallar bunga misoldir. *So'fiy masallari* ham borki, ular haqiqat izlovchini haqiqatga etaklaydi.

Masal janri quyidagi vazifalarga ega: 1. *Oyna funktsiyasi* – masalda aytilgan narsalar bilan kishi, albatta, o'zini solishtiradi va vaziyatni o'ziga qaratadi. 2. *Model funktsiyasi* – vaziyatlarni taklif bilan namoyish etish mumkin bo'lgan yo'llar ularning qarorlari, oqibatlarining ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'ladi. O'quvchi qo'yilgan muammoga o'ziga xos tarzda javob berishga, yechim izlashga harakat qiladi. 3. *Mediatsiya funktsiyasi* – odamlar o'rtasida, ichki qarama-qarshilik paytida tarix vositachi shaklida paydo bo'ladi. Bunda tanlov muammosi o'quvchida ichki qarama-qarshilikni uyg'otadi. 4. *Saqlash tajribasi* – masallarning an'analar tashuvchisi, madaniy aloqalar vositachisi sifatida xizmat qilishi bilan bog'liq. Garchi masallar majoziy ma'noda bo'lsa-da, ularning mazmunini tushunishga harakat qilish lozim. Muallifning pozitsiyasi masal oxirida ochilsa ham, tayyor javob ochiq aytilmaydi. Bunda har kim o'zicha qarorga keladi. Masal madaniy munosabatlar (tajribani saqlash funktsiyasi) orqali urf-odatlarining tashuvchisi hamdir.

Masalni aks ettirgan va masal yordamida mulohaza yuritgan mualliflar uning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatishadi: 1. *Lirik-ijtimoiy masalda* odamlarning yomonliklari emas, balki La Roshfuko yoki La Bryuyer ruhida psixologik kuzatuvlar aks ettiriladi. Bunga sevgi mavzusi bilan bog'langan "Er, xotin va o'g'ri" masali misol bo'la oladi. 2. *Kulinariya va masal*. Masal – konsentrlangan oziq-ovqat. Chunki undagi "mazmun"ni birdan "hazm qilib bo'lmaydi". Buning uchun ma'lum vaqt talab qilinadi. Uni, avvalo, o'zlashtirish, o'ylab ko'rish, amalga oshirish kerak bo'ladi. Masalan, birorta masalni o'qigach, u haqda kun bo'yi o'ylab yurish mumkin. 3. *Siyosiy masal*. Bunga I.A.Krilovning "Fil – viloyat hokimi" masali yaqqol misol bo'la oladi. Unda Qo'ylar xokisor xalq, Bo'rilar zolim va bosqinchi amaldorlar, Fil hokim qiyofasida tasvirlangan. Siyosiy va ijtimoiy masallarda davlat boshqaruv tizimidagi kamchiliklar ochib beriladi. 4. *Falsafiy masal*. Lafontenning masallari ko'proq falsafiy. Jan Lafontenning "Mukammallik" deb nomlangan masali falsafiy mazmunga egaligi bilan bunga misol bo'la oladi. Unda borliq mukammallik bilan yo'g'rilgani, olamda barcha bir-biriga mutanosibli tasvirlangan.

Bundan tashqari, *metafizik masal, tarixiy masal va distopiya tabiatiga oid bashoratli masallar* ham mavjud. Masalan, "Yurakda yosh" masali metafizik

masalga misol bo‘la oladi. Unda yashashning mohiyati, uning maqsadi, yashash sharti kekxa, tajribali kishi tomonidan yoshlarga o‘rgatilmoqda.

Tarixiy masallarda tarixiy shaxslar yoki tarixiy voqeeliklar ifodasi uchraydi. Bunga Lafontenning “Burgundiya gertsogi”, “Dafnis va Alsimadura”, “Aleksandrga hayvonlar tortig‘i” masallari misol qilish mumkin.

Distopiya – buzilgan jamiyat. Unda hamma narsa o‘ta qorong‘i va umidsizdir. Unda totalitar hukumat boshqaruvi va shaxslarning ehtiyojlari, istaklari davlatga bo‘ysunadi. Distopiya tabiatiga oid bashoratli masallarda ana shunday jamiyatning dahshatlari ochib beriladi. Uning yaxshilanishi bashorat qilinadi.

Birinci bobning uchinchi fasli “*Masallarda sarlavha*” deb nomlangan. Masalning nomi uning asosiy g‘oyasini o‘z ichiga oladi. Masallarda quyidagi sarlavha tiplari uchraydi: 1. Mavhum tushunchalarning sarlavhaga ko‘tarilishi (“Erkinlik va tutqinlik”)⁹. 2. Ikkita hasharot nomi bilan atalgan masallar (“Ninachi va chumoli”, “Pashsha va Bolari”). 3. Sarlavhasi tugunga asoslangan masallar (“Sochi yulingan Bo‘ydoq”). 4. Insonlarga xos illatlarni fosh etuvchi masallar (“Xudbin”). 5. Nojinslar obrazi asosida qurilgan masallar. Nojinslar o‘zaro zid qo‘yilgan masallar ko‘pchilikni tashkil qiladi. (“Burgut va Qo‘ng‘iz”). 6. Ikkilik tushunchasiga asoslanib qurilgan masallar (“Ikki echki”, “Ikki xachir”, “Ikki do‘st”, “Ikki lofchi”, “Ikki pahlavon”). 7. Insonlarga xos xislatlarning hayvonlarga ko‘chirib ifodalanishi (“Oshiq Sher”). 8. Katta va kichik nojins jonzorlar haqidagi masallar (“Qurbaqa va Ho‘kiz”). 9. Maqol va iboralar sarlavha sifatida keltirilgan masallar (“O‘zingdan chiqqan baloga...”, “Qordan qochib yomg‘irga...”, “Yugurgannikimas, buyurganniki...”, “Ayagan ko‘zga...”). 10. Sarlavhasi savol tipida bo‘lgan masallar. (“Kimga nima?”). 11. Jonli va jonsiz ikkiligiga asoslangan masallar (“Haykal bilan Tulki”). 12. Yunon olimlari nomi bilan bog‘langan masallar (“Suqrotning javobi”, “Demokrit va Olomon”). 13. Bir xil sarlavhali masallar. “Eshak bilan It” nomi bilan bir necha masallar yaratilgan. 14. Xayoliy obrazlar sarlavhaga ko‘tarilgan masallar (“Farishta va o‘tkinchi”). 15. Daraxt va o‘simliklar nomidagi masallar (“Eman daraxti va Qamish”, “Yong‘oq bilan Oshqovoq”).

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Fransuz adabiyotida masal janri poetik tadriji**” deb nomlangan bo‘lib, uning uch faslidan birinchisi “*Lafonten – buyuk fransuz masalchisi*” nomi bilan atalgan.

Lafonten masalning to‘rt xususiyatini ajratib ko‘rsatdi: 1. Masal oddiy misol yordamida o‘quvchiga qiyin bo‘lgan kundalik vaziyatni tushunishga yordam beradi. 2. O‘quvchi tasavvurini xayolot dunyosiga o‘tkazib, uni kengroq fikrlashga undaydi. 3. Axloq (moral) inson xarakterining salbiy illatlarini qoralovchi va ta‘limiy xulosaga ega. 4. Masaldagi personajlarda predmet va hayvonlar harakat qilishi bilan birga masallar tili sodda, ixcham, jonli so‘zlashuv nutqiga yaqin bo‘lib, o‘quvchiga tushunarli hisoblanadi.

Lafontenning siyosiy masallari juda istehzoli. Uning masallarida adabiy nomlar ham uchraydi. Masalan, “Mushuk va tulki” masalida Molyerning qahramoni Tartufning va o‘rta asr advokati Patelenning ismlari taniqli nomlar

⁹ Жан Лафонтен. Бўри билан кўзичок. – Тошкент: Академнашр, 2022. – Б.3-4.

sifatida ishlatilgan. Yana Lafontenning masallari – falsafiy. Lafontenning masallari nafaqat shakli va mazmuni, balki chuqur axloqiy-didaktik asoslari bilan ham qimmatlidir.

Uyg‘onish davri an‘analarining davomchisi sifatida maydonga chiqqan Lafontenning antik davr, Yevropa hamda Sharq adabiyotidagi masallar, xalq donishmandligi namunalari ruhlanib yaratgan masallari zamonaviyligi, o‘tkir hajvi, tavsiflarning yorqinligi bilan jahon adabiyoti xazinasini boyitdi. O‘zbek va rus masalchiligi rivojida ham Lafonten ijodining muhim o‘rni bor.

Lafonten masallari nozik hazil bilan to‘ldirilgan. Lafontenning tili nihoyatda ifodali va jarangdor. Yozuvchi ayim masallariga o‘zining tug‘ilgan Shampanida ko‘rganlarini (“Arslon terisini kiygan eshak”, “Eshak” kabi) eslatadi.

Lafonten ertak obrazlariga murojaat qilib, XVII asrdagi frantsuz hayotining ko‘p qirralarini, muhim illatlarini qamrab oldi. Lafonten ertaklarga xos bo‘lgan tiplash vositasi – qiyoslashdan mohirona foydalanadi. Bunda u allegoriya va haqiqat, timsol va inson hayotidan kelib chiqib, tasvir yaratadi.

Ikkinchi bob tarkibidagi ikkinchi fasl “*Masallarning asosiy motivlari*” deb atalgan. Masallarning bir qismi o‘lim mavzusidadir. “O‘lim va o‘layotgan odam”, “Pop va Mayit”, “Urg ochi Sherning o‘limi”, “Dehqon va Ajal” kabilar shunday masallardandir.

Ba‘zi masallar mehmondorchilik odobi masalasi bilan bog‘langan. Bunga “Tulki bilan Laylak” masali yorqin misol bo‘la oladi. Shu nomda allegorik ertak ham bor. “Shahar va dala kalamushi” nomli masalda ham mehmondorchilik odobi mavzusi asos qilib olingan. Ammo unda shahar va qishloq hayoti ham bir-biriga zid qo‘yilgan.

Uyini tortib olish mavzusi juda ko‘p masallarning bosh mavzusiga aylantirilgan. “Mushuk, Tovushqon va Suvichqon”, “Ikki it” masallarida “uyini tortib olish” mavzusi yoritilgan.

Onalar haqidagi masallar ham bor (“Ona Sher va Ona Ayiq” kabi). Faqat ko‘pincha bunda ona hayvon timsoli tasvirga olingan. Xotin-qizlar haqidagi masallarni ham alohida turkumlab ko‘rsatish mumkin. Ulardan biri “Ayollar va Sir” nomida bo‘lib, unda ayollarning hamisha g‘iybatga usta bo‘lishi, sirni ichida yashira olmasligi fosh etilgan. “Kuyov tanlar qiz” masalida kibri tufayli vaqtni o‘tkazib, qari qiz bo‘lib o‘tirib qolgan, so‘ngra mayrig‘-u cho‘loq erga tekkan qiz haqida so‘z yuritilgan.

Kasb-hunar egalari haqidagi masallarda eng ko‘p cho‘pon (“Cho‘pon va Qo‘ylar”, “Bo‘ri va Cho‘ponlar”, “Cho‘pon va dengiz”, “Cho‘pon va podshoh”) va dehqon (“Dunaydagi dehqon”, “Dehqon va o‘g‘illari”) obrazi uchraydi.

“Baliqchi va Baliqcha” masalida jonlantirish, aniqrog‘i, intoq san‘ati asosida baliq gapiradi. Bu ertaklarda keng uchraydigan an‘anaviy motivlardan biridir. Ertaklarda to‘rga ilingan baliqning “qo‘yib yuborish” iltimosi qabul qilinsa, masalda qabul qilinmaganiga guvoh bo‘lish mumkin.

“O‘rmon va daraxt kesuvchi”, “O‘tinching boltasi”? “Oqqush va Oshpaz”, “Bog‘bon va Boy qo‘shni”, “Bog‘bon, Sho‘x bola va Tarbiyachi”, “Puldor bilan Etikdo‘z”, “Haykaltarosh va Haykal”, “Shifokorlar”, “Sut sotuvchi qiz va

xumcha” masallarida ham turli kasb egalari obrazi gavdalantirilgan. “Folbin” masalida folbinlikni kasb qilib, odamlarni aldaydigan kimsalar fosh etilgan.

Bilim olish, uning foydasi hamisha dolzarb mavzulardan biri sifatida badiiy ijodning barcha janrlari mazmunida aks ettirilgan. Masallar ham bundan mustasno emas. “Bilim foydasi” nomi bilan alohida masal ham bor. Yoki ba’zan omonatga xiyonat holati uchraydi. Uning to’g’ri emasligi ayrim masallarda ochib berilgan. Bunga “Omonat va Xiyonat” masalini misol qilish mumkin.

Keksalik mavzusidagi masallar ham alohida mavzuiy guruhni tashkil qiladi. “Qartaygan Sher” (yoki “Keksa sher”) masali keksalikdagi xo’rlanish, to’g’rirog’i, inson bardosh bera oladigan xo’rlik chegaralari haqidadir. Qari beka va ikki xizmatkor qiz”, “Qariya va Uch yigit”, “Qari Mushuk va Sichqoncha” keksalik faqat insonlarga emas, barcha jonli mavjudotga xosligi yoritilgan.

Mazmuni majoziy ko’rinishda ijtimoiylashtirilgan masallar ham anchagina. Masalan, “Baqalarning o’zlariga shoh so’raganlari” masali siyosiy mazmunga egaligi bilan e’tiborni tortadi. Shuningdek, diniy mavzudagi masallar ham uchraydi. Bunga “Butparast va uning Buti” masalini misol qilish mumkin. “Ombordagi Qaldirg’och” kabi ayrim masallar tekinxo’rlikni qoralash mavzusida yaratilgan. “Boyligidan ayrilgan Xasis”, “Xasisning xazinasini” masallarida insonlarga xos xasislik yomon illatlardan biri sifatida qoralangan.

Uy-ro’zg’or buyumlari majoziy lashtirilgan masallar ham o’z o’rniga ega. Ulardan biri “Tuvak va Qozon” masalidir.

Insoniy munosabatlar talqiniga bag’ishlangan masallar ham anchagina salmoqqa ega. Ayniqsa, otalar va bolalar munosabatini yorituvchi masallar (“Qari ota va Bolalari”) alohida e’tiborga molik. Er-xotin munosabati jamiyatning muhim muammolaridan biri bo’lgani uchun bu masala ham masallar mazmuniga singdirilgan. “Suvga cho’kkan ayol”, “Baxti qaro er”, “Ichkilikboz va uning xotini” kabi masallarida yomon xotin, yomon er fosh etilgan.

“Salomatlik va kasallik haqida ham masallar yaratilgan. Masalan, “Betob kiyik”, “Hayvonlar o’lati” masalida shu muammo qalamga olingan. Yuk ortilgan eshak turkumidagi masallar, bizningcha, alohida turkumlashga loyiq. Ular ko’pincha “Ikki Eshak” nomi bilan atalgan bir necha turli masallardir.

Xullas, masallarning motivlar tarkibi juda boy va rang-barang. Ularning ayrimlari epik motiv sifatida afsona, ertak, dostonlarga aloqadorligi ayonlashadi.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli “*Masallarning obrazlar ko’lami*” deb nomlangan. Yevropa masalchilarining masal qahramonlari orasida arxetipal, ramziylari anchagina. Masallarda ko’p uchraydigan cho’pon, dehqon ham ma’lum darajada arxetipikdir. Ushbu arxetiplarning barchasi ijobiy ma’nolarni o’z ichiga oladi, ijobiy assotsiatsiyalarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, masal qahramonlari ancha harakatchan. Ma’lumki, masal uchun voqealarning rivojlanish jarayoni emas, balki uning natijasi muhimdir. Shuning uchun undagi har bir obraz o’z ahamiyatiga ega.

Mifologiyaning har qanday xususiyati real haqiqatga ishora qiladi. Masallarining ayrimlarida *yunon-rim mifologiyasidagi ma’budlar obrazi* qo’llangan. Masalan, “Nuqs” nomli masalda Yupiter nomi uchraydi. “Zevsning o’g’li”, “Iloh va Sayyoh”, “Amur va telbalik”, “O’tinchi va Merkuriy”, “Fil va

Yupiterning maymuni”, “Simonidlarga xudolarning ogohlantirishi” kabi masallarida ham ma’budlar, “Skif faylasufi”, “Yuz boshli va yuz dumli ajdarlar” masalida mifologik obrazlar gavdalantirilgan.

Masallarning ayrimlarida hukmdorlar – Qirol, Podshoh, Xon obrazlari tasviriga duch kelish mumkin. Masalan, “Qirol va Kalxat”, “Mo’g’ul xonining tushi”, “Poshsho va Savdogar”, “Podsho bo’lgan Cho’pon” masallari shular jumlasidandir.

Ustoz va shogird masalasi hamma zamonlarda dolzarblik kasb etgan. Bu haqda ham qator masallar yaratilgan. Masalan, “Ustoz va shogird”, “Bog’bon va Shogird” masallarida shu masala ko’tarilgan.

Masallardagi inson personajlardan eng ko’p uchraydiganlaridan biri *Ovchi obrazidir*. U goh yetakchi, goh ko’makchi obraz sifatida uchraydi. “Badnafs ovchi” masalida u salbiy personaj bo’lsa-da, yetakchi obraz bo’lib gavdalanadi.

Masallarda *uy-ro’zg’or buyumlari obraziga* ham duch kelish mumkin. Masalan, “O’zini o’tga tashlagan Sham” masalida sham obrazidan foydalanilgan.

Suvliklar obrazi asosiga qurilgan masallar ham mavjud. Ulardan biri “Sharshara va Daryo” nomi bilan atalgan. Yoki masallarda dov-daraxtlar, o’simliklar, hayvonlar, turli jonivorlar, qushlar, parrandalar ham ko’pincha yetakchi obraz bo’lib kelishi kuzatiladi.

Masallarda yuqorida nomlari qayd etilgan obrazlar bitta, qo’sha, uchta yoki to’rtalab kelishi mumkinligiga qarab, ularni quyidagicha tasniflash mumkin: 1. Bir personajli masallar. (“Ko’rshapalak”, “Tarki dunyo qilgan Sichqon”). 2. Ikki personajli masallar (“She’r va Chivin”). 3. Uch personajli masallar. (“Tegirmonchi, uning o’g’li va Eshak”, “Burgut, Yovvoyi to’ng’iz va Mushuk”). 4. To’rt personajli masallar. (“Savdogar, Aslzoda, Qirolning o’g’li va Cho’pon”).

